ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

Ismatova Gulsevar Akobir qizi,

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti

6-2Uzb25 guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri, betakror she’riy maktab yaratgan, o‘tkir iste’dod sohibi Muhammad Yusuf ijodida qo‘llanilgan tasviriy vositalar va ularning semantik-pragmatik xususiyatlari tahlil etiladi. Shoir poetikasining badiiy tabiatini belgilovchi asosiy omillardan biri – uning obraz yaratishdagi soddaligi bilan chuqur ma’no qatlamlarini uyg‘unlashtira olgan mahoratidir. maqolada shoir ijodida qo‘llanilgan tasviriy vositalarning nafaqat badiiy-estetik tabiatini, balki ular orqali yuzaga kelgan ma’no, mazmun va ruhiy-emotsional qatlamlarning o‘zaro uyg‘unligini tadqiq etish nazarda tutiladi. Bu jihatlar Muhammad Yusuf poetikasining ichki logikasi, badiiy olami va milliy poetik tafakkurdagi o‘rnini yanada teran anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tashbeh, tajohuli orif, tamsil, anafora, nido, Itfoq, shoir mahorati

Abstract. The article analyzes the figurative devices employed in the poetry of Muhammad Yusuf — People’s Poet of Uzbekistan, creator of a unique lyrical school, and a master of profound artistic expression — as well as their semantic and pragmatic functions. One of the key factors determining the aesthetic nature of the poet’s creative world is his ability to harmonize simplicity of imagery with multilayered meanings.

The study aims to examine not only the artistic and aesthetic qualities of the figurative means used by the poet, but also the interplay of meanings, content, and emotional-spiritual layers that emerge through them. These aspects provide deeper insight into the internal logic of Muhammad Yusuf’s poetics, his artistic universe, and his place within the tradition of national poetic thought.

Keywords: tashbeh, tajahuli orif, tamsil, anaphora, nido, Itfoq, poet's skill.

Аннотация. В статье анализируются образные средства, используемые в творчестве народного поэта Узбекистана, создателя уникальной поэтической школы, обладателя яркого таланта, Мухаммада Юсуфа, и их семантико-прагматические характеристики. Одним из главных факторов, определяющих художественную природу поэтики поэта, является его умение сочетать простоту в создании образов с глубоким смысловым пластом. Цель статьи – изучить не только художественно-эстетический характер образных средств, используемых в творчестве поэта, но и гармонию смыслового, содержательного и духовно-эмоционального пластов, создаваемых с их помощью. Эти аспекты позволяют глубже понять внутреннюю логику поэтики Мухаммада Юсуфа, его художественный мир и его место в национальной поэтической мысли.

Ключевые слова: метафора, таджахули ариф, притча, анафора, восклицание, итфак, поэтическое мастерство

Kirish.

Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotining yorqin vakili. U she'riyatni yana bir pog'ona yuqoriga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. She'rlarida Vatanga muhabbat, samimiylik, ezgu fikrlar aks ettirilishi bilan birgalikda turli badiiy san'atlardan ham keng va samarali foydalangan. Ushbu san'atlar she'rlarini yanada go'zal, takrorlanmas bo'lishi uchun zamin yaratgan.

Adabiyotshunoslik – inson va borliq munosabatlarini o'rganuvchi sohadir. Sharq adabiyotining asosi sanalmish ilmi segona ichida badiiy san'atlarning o'rni beqiyosdir.

Ilmi bade' arabcha birikma bo'lib, chiroyli so'zlash, nodir va ajoyib degani (3). Muhammad Yusuf ijodida she'riy san'atlarning go'zal namunalari qo'llangan.

Asosiy qism.

Kuzda go'zal bizning Farg'ona,
Qiyosi yo'q jannat Vatandir.
Xatim tamom. Aytgandek, ona,
Zebi erga tegib ketgandir?![1,16]

Ushbu to'rt qator misrada 4 ta she'riy san'atdan foydalanilganligi shoir mahoratidan darak beradi. "Farg'ona" so'zi orqali **tamsil** san'ati,"Jannat Vatandir" so'zlari orqali Vatanni jannatga o'xshatyapti, ya'ni **tashbeh** san'ati, "Ona" so'ziga urg'u berilgan va bu **nido** san'atini, "Zebi erga tegib ketgandir" misrasi orqali **tajohuli orif** san'atini yuzaga keltirish bilan bir qatorda misralarning ohangdorligini, ta'sirchanligini oshirgan.

Shuningdek,
Na qildim ey, yuzlari Zebo,
Aybim ne deb so'rama aslo.
Bu dunyo shundayin bevafo,
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan [2-52].

Ushbu parchada ham "Ey" so'zi orqali **nido**ni, "yuzlari Zebo" orqali **husni ta'lil,** "Yur Muhammad" so'zi orqali **itfoq**, ya'ni shoir o'z ismini shunday qo'llaydiki, kitobxon uni ham taxallus, ham asl lug'aviy ma'nosida tushunadi. Itfoq she'riy san'atiga misol tariqasida yana:

Ishing tushsa inim Muhammadga bor,
Shoirlar ichida ishonganim shu.
Biroz ichini aytmasa agar,
Ko'ksi tiniq bola u, halol bola u.
Faqat sal soddaroq, faqat sal sho'xroq,
Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq.
misralarini kiritish mumkin.

She'riyatimizda **anafora** degan go'zal tasvir vositasi mavjud bo'lib, shoir nomini olgan hamma ham ushbu san'atni qo'llay olmaydi, lekin Muhammad Yusufning ushbu san'atni ham yuzaga keltirgan she'rlari mavjud:

Qiz yo'q uyda sarrin sabo esmaydi,
Qiz yo'q uyda jambil rayhon o'smaydi [1-111].
Hech kim uni mendek o'qimagan lekin,
Hech kim uni mendek o'qiyolmagan [2-40].

Tazod – zidlantirish san'ati, uning semantik tuzilishi, she'riyatda qo'llanilishini go'zal tasvirlab bergan. Jumladan,

Mushtipar-u munglig' sensan,
Ko'zingda yoshlar shashqator.
Na beva, na qalliq sensan,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Oylar chiqib, oylar botar. [1-13]

Ushbu misralarda oyning chiqib botishini, "beva" bilan "qalliq" so'zlari orqali tazod ifodalangan. Binobarin,

Topmoq yo'qotmoqdir,
Yo'qotmoq topmoq.
Sen so'lib, men yashnab to'lishimga boq.
Seni topganimdan ko'proq yo'qotdim,
Sen meni yaratding, seni tugatdim,
Sen meni yupatding, seni yig'latdim,
Uyalmay ona deb kelishimga boq.

Ushbu she'rda deyarli har bir qatorda tazod san'atidan foydalanilgan. Topmoq va yo'qotmoq, so'lish va yashnash, yaratmoq bilan tugatmoq, yupatmoq va yig'latmoq. Har bir qator, she'rning har bir bayti ziddiyat asosida tuzilishi uning serqirra ijodkor, qalami o'tkir shoir ekanligini ifodalaydi.

Xulosa. Muhammad Yusufning she'rlarida tashbeh, tajohuli orif, nido, anafora, ittifoq, tazod va boshqa tasvir vositalari ko'plab uchraydi. Uning ijodkorlik mahorati, o'quvchiga ta'sir qiladigan konseptlarni qo'llash san'ati, badiiy estetikasi va til boyligi uning mana shunday zabardast vakil bo'lishiga zamin yaratdi; she'rlaridagi otashinlik, mehr-muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik va shunday go'zal badiiy tasvir vositalaridan foydalanganligi tufayli she'riyatimizda o'chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – 367 b.

2. Muhammad Yusuf Yusuf. Bulbulga bir gapim bor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 54 b.

3. Bo'ronova Nigora. Muhamad Yusuf she'rlarida badiiy san'atlarning qo'llanilishi\\Universite de Montreal. – B. 4-8.

4. FITRAT IJODIDA NABOTOT VA HAYVONOT TALQINI. (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *5*(6), 730-733. https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/4002

5. Nafosat O'roqova.(2024). YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA MEVALI DARAXT OBRAZLARI POETIKASI. *Hamkor Konferensiyalar*, *1*(8), 11–18. Retrieved from https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1055

6. O'ROQOVA N. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAUNISTIK OBRAZLARNING AN'ANAVIYLIGI //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 327-328.

7. O'roqova, N. Y. (2024). YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA OLAM BADIIY MANZARASINI GUL TIMSOLLARI ORQALI IFODALASH POETIKASI. *QO'QON Universiteti XABARNOMASI*, *12*, 103–108. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.1001

8. CHO'LPON LIRIKASIDA HAYVONLAR RAMZI. (2024). *CONFERENCE ON The ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD*, *1*(4), 203-212. https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/1404